TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI.....	864
<b>Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	868
<b>Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li</b>	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
<b>Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.</b>	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
<b>Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li</b>	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
<b>Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li</b>	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI .....	889
<b>Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	893
<b>Shaymanova Nigora Yusupovna</b>	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH .....	899
<b>Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdugarimovich</b>	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
<b>Bakhtiyorjon Komilov</b>	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
<b>Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi</b>	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI .....	913
<b>Oripov Mirzo Mahmudovich</b>	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
<b>Ибраимова Махсура Уснатдин кизи</b>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	922
<b>Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi</b>	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
<b>D.D.Omonova</b>	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT .....	933
<b>Yovkochev Sherzod</b>	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
<b>To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li</b>	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
<b>Xojakbar Zaynabidinov</b>	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	950
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi</b>	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
<b>Savurbayev Zafar Abdumuminovich</b>	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI .....	960
<b>D. G. Bazarov</b>	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH .....	966
<b>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</b>	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR .....	971
<b>Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi</b>	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
<b>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
<b>Mirzayev Kobil Nosirjonovich</b>	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH .....	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR .....	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI .....	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION .....	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH .....	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД» .....	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH .....	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN .....	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI .....	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimirat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI .....	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI .....	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI .....	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR .....	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI .....	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
<b>G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
<b>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</b>	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
<b>Ibragimov Nodir Nusridinovich</b>	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
<b>Jalilov Jamshid G'anjonovich</b>	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
<b>Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna</b>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
<b>Haydarova Mohichehra Xurram qizi</b>	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
<b>Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li</b>	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
<b>Sanakulova B. R., Jamolov M.M.</b>	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
<b>Muydinov Erkin Djamaldinovich</b>	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
<b>Xamidov Anis Choriyevich</b>	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
<b>Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
<b>Muradova Nazira Raximjanovna</b>	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
<b>Xudayorova Munira Omonboy qizi</b>	



# XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



**Xudayorova Munira Omonboy qizi**

Urganch RANCH texnologiya universiteti o'qituvchisi

Email: [ominarustamova@gmail.com](mailto:ominarustamova@gmail.com)

ORCID: 0009-0003-2781-977X

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm viloyati misolida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarining holati va ularni takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mintaqaning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari o'rganildi, YAIM, ishsizlik, inflyatsiya va investitsiya oqimlari dinamikasi solishtirildi. SWOT tahlil yordamida Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishidagi kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat va tahdidlar aniqlanib, hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiya darajasi baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun viloyatda sanoat va xizmatlar sektorini rivojlantirish, qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, turizm salohiyatidan samarali foydalanish, suv resurslarini tejash hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash zarur. Maqolada ilgari surilgan takliflar Xorazm viloyatida barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy barqarorlik, mintaqaviy rivojlanish, Xorazm viloyati, investitsiya, diversifikatsiya, SWOT tahlil, yashil iqtisodiyot.

**Abstract.** This article analyzes the mechanisms of ensuring economic stability in the Khorezm region and explores the ways of improving them. The study examines key macroeconomic indicators of the region, including GDP growth, unemployment, inflation, and investment flows, and compares them with national averages. By applying SWOT analysis, the strengths, weaknesses, opportunities, and threats of regional development were identified, and the level of economic diversification in Khorezm was assessed. The results show that in order to achieve sustainable economic stability, it is necessary to accelerate the development of industry and the service sector, introduce modern technologies in agriculture, make effective use of tourism potential, improve the efficiency of water resources management, and apply green economy principles. The proposed recommendations are expected to contribute to achieving long-term sustainable development and improving the socio-economic well-being of the Khorezm region.

**Key words:** economic stability, regional development, Khorezm region, investment, diversification, SWOT analysis, green economy.

**Аннотация.** В данной статье проанализировано состояние механизмов обеспечения экономической устойчивости на примере Хорезмской области, а также рассмотрены направления их совершенствования. В ходе исследования изучены ключевые макроэкономические показатели региона, сопоставлена динамика ВРП, безработицы, инфляции и инвестиционных потоков. С помощью SWOT-анализа выявлены сильные и слабые стороны экономического развития Хорезмской области, определены возможности и угрозы, а также оценён уровень диверсификации региональной экономики. Результаты исследования показывают, что для достижения экономической устойчивости в области необходимо дальнейшее развитие промышленности и сферы услуг, внедрение современных технологий в сельское хозяйство, эффективное использование туристического потенциала, рациональное управление водными ресурсами и применение принципов «зелёной» экономики. Предложенные в статье рекомендации направлены на обеспечение устойчивого экономического развития Хорезмской области.

**Ключевые слова:** экономическая стабильность, региональное развитие, Хорезмская область, инвестиции, диверсификация, SWOT-анализ, зеленая экономика.



## KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlik masalasi bugungi kunda O'zbekiston hududlarida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Xorazm viloyati iqtisodiyotining agrar sohaga tayanib kelayotgani, hududning tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, sanoat hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish uchun yangi imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bois viloyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini shakllantirish, investitsiya muhitini yanada qulaylashtirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Iqtisodiy barqarorlik tushunchasi iqtisodiyot nazariyasi va mintaqaviy rivojlanish siyosatida keng o'rganilgan bo'lib, u mamlakat iqtisodiy tizimining uzoq muddatli o'sish, samaradorlik va ijtimoiy farovonlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyatini anglatadi. Ushbu kategoriyaning mazmuni makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik kabi to'rtta asosiy yo'nalishni qamrab oladi. Mazkur yo'nalishlarning o'zaro uyg'un rivojlanishi hudud iqtisodiy tizimining samarali va barqaror ishlashini ta'minlashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, Xorazm viloyati iqtisodiyoti tarkibini diversifikatsiya qilish, zamonaviy sanoat va xizmat ko'rsatish klasterlarini shakllantirish, agrar sektorning innovatsion rivojlanishini rag'batlantirish hamda iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini modernizatsiya qilish hudud iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan dolzarb metodik yo'nalishlar sifatida ko'riladi<sup>1</sup> (1-jadval).

1-jadval. Iqtisodiy barqarorlik yo'nalishlari<sup>2</sup>

No	Iqtisodiy barqarorlik yo'nalishlari	Mazmuni
1.	<b>Makroiqtisodiy barqarorlik</b>	YAIM o'sishi, inflyatsiya darajasi, ishsizlik va budget taqchilligining nazoratda bo'lishi.
2.	<b>Mikroiqtisodiy barqarorlik</b>	Korxonalar faoliyatining rentabelligi, ishlab chiqarish samaradorligi va investitsiya oqimlarining barqarorligi.
3.	<b>Ijtimoiy barqarorlik</b>	Aholining daromadlari, bandligi va ijtimoiy tenglik darajasi
4.	<b>Ekologik barqarorlik</b>	Resurslardan oqilona foydalanish va yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy qilish

Iqtisodiy barqarorlikning to'rtta tarkibiy yo'nalishi — makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik — bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida harakat qiladi. Ularning uyg'un rivojlanishi natijasida mamlakatda iqtisodiy o'sish barqarorlashadi, ijtimoiy adolat mustahkamlanadi va ekologik xavfsizlik ta'minlanadi. Shu sababli davlat siyosati bu yo'nalishlar o'rtasida muvozanatni saqlash va ularni kompleks tarzda rivojlantirishga qaratilishi lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni o'rganishda bir nechta nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ular iqtisodiy tizimlarning muvozanatini, resurslardan samarali foydalanishni va uzoq muddatli rivojlanish omillarini tahlil qilishga asoslanadi. Jumladan, Keynes davlatning iqtisodiy sikllarni yumshatishdagi rolini asoslab bergan bo'lsa, Porter mintaqaviy raqobatbardoshlikda diversifikatsiya va innovatsiyalarning muhimligini ko'rsatgan. O'zbek olimlari — Vaxabov, Xolbekov va Haydarova mintaqalarda resurslardan oqilona foydalanish hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash masalalarini tadqiq qilgan<sup>3</sup>. Quyidagi jadvalda shu turdagi bir nechta nazariy yondashuvlar berilgan (2-jadval).

1 Berkinov B.B., Mamatova F.X. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari. Ilmiy-ommabop risola. - T.: TDIU, 2011 y. 2. Abulqosimov X.P.

2 Muallif ishlanmasi

3 M.A Mamatov "Iqtisodiy o'sish" 2021

2-jadval. Mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikning nazariy-metodologik yondashuvlari<sup>4</sup>

№	Yondashuv nomi	Asosiy g'oya	Yetakchi olimlar	Mintaqaviy barqarorlikka ta'siri	Xorazm viloyatidagi amaliy misollar
1	Klassik va neoklassik yondashuvlar	Bozor o'zini-o'zi tartibga soladi; ishlab chiqarish omillari muvozanati	A. Smit, D. Rikardo	Resurslardan samarali foydalanish orqali barqarorlik	Xususiy biznesning kengayishi; Paxta va g'allada bozor narxlar; Turizm xizmatlari liberallasuvi; Soliq imtiyozlari.
2	Keynsian yondashuv	Davlat talabni rag'batlantirishi va iqtisodiyotga aralashishi lozim	J. M. Keyns	Investitsiyalar orqali iqtisodiy faollikni tiklash	"Urganch-Xiva" yo'lagi; Obod qishloq/mahalla dasturlari; Irrigatsiya tizimi rekonstruksiyasi; Aeroport modernizatsiyasi.
3	Endogen o'sish nazariyasi	Innovatsiya, inson kapitali va texnologiya ichki o'sish omili	P. Romer, R. Lukas	Texnologik rivojlanish barqaror o'sish asosidir	IT Park Xorazm; Xorazm Texnoparki; UDTU – STEM rivoji; Xiva Smart City.
4	Institutsional yondashuv	Qonunchilik va institutlar iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynaydi	D. Nort	Samarali boshqaruv orqali mintaqaviy barqarorlik	DXSh asosidagi loyihalar; Xalq qabulxonasi, Yagona darcha Sud-huquq islohotlari; Yer ajratish raqamlashtirilishi.
5	Klasterlashuv nazariyasi	Klasterlar raqobatni va innovatsiyani kuchaytiradi	M. Porter	Tarmoqlar integratsiyasi iqtisodiy faollikni oshiradi	Paxta-to'qimachilik klasterlari; Xiva turizm klasteri Xazorasp EIZ; Meva-sabzavot klasterlari.
6	Barqaror rivojlanish konsepsiyasi	Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanat	Brundtland komissiyasi	Uzoq muddatli barqaror rivojlanish	Yashil makon – ko'chat ekish; Quyosh energiyasi stansiyalari; Tomchilatib sug'orish; Eko-turizm rivoji.

Klassik va neoklassik iqtisodiy maktablar iqtisodiy barqarorlikni bozorning o'zini o'zi tartibga solish mexanizmlari bilan izohlaydi. Narxlar tizimi, erkin raqobat va ishlab chiqarish omillarining samarali taqsimoti mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillari sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv asosida O'zbekistonda narxlarning bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi, 2017-yilda valyuta bozorining liberallashtirilishi, monopoliyaga qarshi siyosat islohotlari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va soliq islohotlari amalga oshirilmoqda. Yuqoridagi jadvalda ko'rib chiqilgan har bir yondashuv asosida Xorazm mintaqasida iqtisodiyotni barqarorlashtirish bo'yicha ko'plab qonun loyihalari hamda ilmiy-amaliy loyihalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Xorazm viloyatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, hududning kuchli va zaif jihatlarini baholash, shuningdek, barqaror rivojlanish uchun zarur mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda statistik tahlil, SWOT tahlil, qiyosiy tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida Xorazm viloyatining iqtisodiy barqarorligi ko'plab ko'rsatkichlar kesimida chuqur tahlil qilindi va quyidagi natijalar aniqlandi.

2023-yilda Xorazm viloyatining Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 36 916,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich hudud iqtisodiyotining ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar sohasi rivoji va qishloq xo'jaligi natijalarining umumiy yig'indisini ifodalaydi. O'tgan yilga nisbatan o'sish iqtisodiy faoliyatning tiklanayotganiga ishora qiladi.

2024-yilda esa yanvar-sentyabr yakunlariga ko'ra YAHM hajmi 36 199,7 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4% real o'sish qayd etilgan. Bu viloyatda iqtisodiy faollikning barqarorlashib borayotganini ko'rsatadi.

4 Muallif ishlanmasi



Xorazm viloyatining 2023-yil yanvar–mart holatidagi YAHM tarkibi quyidagicha taqsimlangan:

- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi: 31,4%
- Sanoat: 19,0%
- Xizmatlar sohasi: 43,3%

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, viloyat iqtisodiyoti an‘anaviy ravishda agrar yo‘nalishga tayanadi, biroq xizmatlar sektori, xususan turizm, savdo va transport xizmatlari jadal rivojlanmoqda.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 12 050,7 mlrd so‘mni tashkil etgan. Ushbu dinamika sanoat, infratuzilma va xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlarining faolligini tasdiqlaydi.

Investitsiyalarning sezilarli qismi Xazorasp erkin iqtisodiy zonasi, turizm infratuzilmasi va qishloq xo‘jaligi modernizatsiyasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, hududning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2023-yil IV choragida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 21 167,9 mlrd so‘mga yetgan. Ushbu ko‘rsatkich sanoat korxonalaridagi ishlab chiqarish hajmi ortganini va tarmoqqa bo‘lgan talabning kuchayganini bildiradi.

Sanoat o‘shisi asosan kimyo sanoati, elektrotexnika, to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash yo‘nalishlarida kuzatilmoqda. Xazorasp EIZ sanoatning asosiy drayverlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, viloyat iqtisodiyoti an‘anaviy ravishda agrar yo‘nalishga tayanadi, biroq xizmatlar sektori, xususan turizm, savdo va transport xizmatlari jadal rivojlanmoqda (3-jadval).

### 3-jadval. SWOT tahlil natijalari

Kuchli tomonlar (S)	Imkoniyatlari (O)
Geostrategik joylashuv, kuchli turizm brendi, mevali mahsulotlar eksporti, EIZ faoliyati.	Yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik turizm, IT va xizmatlar sektori
Zaif tomonlari (W)	Tahdidlar (T)
Suv tanqisligi, logistika cheklovlari, texnologik orqada qolish, eksport diversifikatsiyasining pastligi	Ekologik xavflar, iqlim isishi, suv resurslarining kamayishi, tashqi bozorlarga qaramlik

SWOT tahlil natijalariga ko‘ra Xorazm viloyatining kuchli tomonlaridan biri turizm salohiyatidir. Bugungi kunda ushbu soha mintaqa barqarorligini ta‘minlash uchun yetakchi yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga misol qilib aytishimiz mumkinki, Xiva shahrining UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgani sababli yiliga 350–400 ming sayyoh qabul qilinadi va “Ipak yo‘li” bo‘yicha xalqaro marshrutlarning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Xivada 2023–2024-yillarda yangi mehmonxonalar va zamonaviy turizm markazlari qurildi, jumladan, 2025-yilda ishga tushirilgan “Arda Xiva” majmuasi. “Xiva – 2024 Islom madaniyati poytaxti” loyihalari turizm oqimini sezilarli darajada oshirdi.

Mintaqaning yana bir kuchli tomoni erkin iqtisodiy zonaning mavjudligidir, ya‘ni Xazorasp EIZda 70 dan ortiq sanoat loyihalari amalga oshirilgan. Kimyo, elektrotexnika va logistika sohalarida eksportga yo‘naltirilgan korxonalar faoliyat ko‘rsatadi. 2023-yilda EIZda ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati sezilarli ravishda oshdi. Shuningdek, viloyat qulay geografik joylashuvga ega. Xorazm Qozog‘iston va Turkmaniston bilan yaqin joylashgani sababli eksport logistikasiga qulay imkoniyatlarga ega. “Urganch – Toshkent” aviaqatnovlari va temiryo‘l liniyasi tovar va sayyohlar oqimini ta‘minlaydi. Amudaryo bo‘yida joylashganligi tufayli qishloq xo‘jaligi uchun tabiiy irrigatsiya resursi mavjud.

Mintaqaning zaif tomonlari Amudaryodan kelayotgan suv hajmining kamayishi natijasida mazkur hudud O‘zbekistonda suv tanqisligidan eng ko‘p aziyat chekayotgan viloyatlardan biri ekanligida namoyon bo‘ladi. Sug‘orish tizimi eskirgan, suvning 25–30% miqdorida yo‘qotilishi kuzatilmoqda va bu jarayon qishloq xo‘jaligi hosildorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Mintaqaga tahdidlarning eng asosiy ko‘rinishi ekologik xavflardir. Viloyat Orolbo‘yi hududiga yaqin joylashganligi sababli sho‘rlanish va chang ko‘chishi muammolari sezilarli. Atmosfera haroratining keskin o‘zgarishi ekotizimga bosim o‘tkazmoqda.

Mintaqaning imkoniyatlari ham keng qamrovli bo‘lib, “Yashil makon” doirasida Xorazm bo‘yicha har yili 1 milliondan ortiq ko‘chat ekilmoqda. Hududning iqlim sharoitiga mos sho‘rga chidamli daraxtlar (saksovul, terak, jйда) orqali ekologik holatni yaxshilash imkoniyati mavjud. Gurlan va Yangiariq tumanlarida aholi xonadonlarida quyosh panellari keng joriy etilmoqda. Xorazm viloyati yil davomida quyosh nuri soatlari yuqori bo‘lgan hududlardan biri bo‘lib, quyosh elektr stansiyalari qurish uchun juda qulay. Shamol energiyasidan foydalanish bo‘yicha ham pilot-loyihalar rejalashtirilgan. IT Park Xorazm filialida 2023–2024-yillarda 3000 dan ortiq yoshlar IT yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitildi. Xiva shahrining “Smart City” loyihalari raqamli xizmatlarni kengaytirmoqda. Elektron hukumat tizimi orqali ko‘plab xizmatlar onlayn shaklga o‘tkazilmoqda.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Viloyat iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichiga chiqish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi. Sanoat va xizmatlar sektorini rivojlantirish, jumladan, Xazorasp EIZ imkoniyatlaridan to'liq foydalanish hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Xiva shahri atrofida turizm klasterini kengaytirish va eksportga mo'ljallangan xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish zarur.

Qishloq xo'jaligida modernizatsiya, ya'ni tomchilatib sug'orish texnologiyalarini keng joriy qilish, suvni tejoychi innovatsion texnikalarni qo'llash, meva-sabzavot klasterlarini qo'llab-quvvatlash hamda eksportga xizmat qiluvchi logistika markazlarini tashkil etish talab etiladi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, quyosh va shamol energetikasi loyihalarini kengaytirish, "Yashil makon" tashabbusi doirasida ekologik barqarorlikni oshirish va chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish mintaqaning ekologik xavfsizligi uchun muhim yo'nalishlardir.

Bandlik va inson kapitalini rivojlantirish maqsadida IT ta'limini kengaytirish, yoshlar startaplarini qo'llab-quvvatlash, hunarmandchilik, gastronomiya va ekoturizm bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini yaratish lozim.

Suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, Amudaryo suvini tejoychi muqobil tizimlarni yaratish va suv hisobini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish mintaqaning strategik ehtiyojlaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
2. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
3. M.A Mamatov "Iqtisodiy o'sish" 2021
4. *Berkinov B.B., Mamatova F.X. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari.* Ilmiy-ommabop risola. - T.: TDIU, 2011 y. 2. Abulqosimov X.P.
5. Vaxabov A.V. Jahon iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
6. Xolbekov R.O. Iqtisodiy tahlil ta'limoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
7. Haydarova N.A. Iqtisodiy ma'lumotlar tahlili. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
8. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>